



SAMARQAND VILOYATI BANDLIK BOSH BOSHQARMASI
TOYLOQ TUMANI AHOLI BANDLIGIGA KO‘MAKLASHISH
MARKAZI

141500, Toyloq tumani, A.Temur ko‘chasi.Tel: (8 366) 666-56-43t.toyloq@mehnat.uz www.mehnat.uz

“ ___ ” _____ 2022 yil

№ _____

Toyloq tuman

Toyloq tuman Aholi bandlogiga ko‘maklashish markazi tomonidan 2022-yil
1-yarim yillikda aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha qilingan ishlar
to‘g‘risidagi HISOBOT

2022 yil davomida dastur bo‘yicha jami 2219 nafarini ish bilan ta‘minlash rejalashtirilgan bo‘lib, yanvar-iyun oylarida dastur bo‘yicha 1065 nafar ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish prognoz qilingan, amalda yanvar-iyun oylarida 1071 nafar 6 oylik prognozga nisbatan 100,5% ishsiz fuqarolar iqtisodiyotning turli soxalaridagi korxonalar, tashkilot va muassasalaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga Markaz yo‘llanmalari asosida ishga joylashtirildi. Ishga joylashtirilgan fuqarolarning 424 nafarini yoshlar va 567 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi.

2022 yilda jami mavsumiy va vaqtinchalik ishlarga jalb etish axoli bandligini ta‘minlash va yangi ish o‘rinlari tashkil etish bo‘yicha **33414** ta yangi ish o‘rni yaratilishi rejalashtirilgan bo‘lib, amalda **18228** ta mavsumiy va vaqtinchalik ishlarga jalb etish orqali yangi ish o‘rinlari yaratildi. Jumladan, qurilish transport va kommunal sohasida **230** ta, investisiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishida **207** ta, qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligida mavsumiy va vaqtinchalik ishlar uchun **8539** ta, Moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida **8572** ta, turizm madaniyat sohasida **680** ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5-oktyabrdagi 799-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maksadida, tumandagi barcha tashkilot va korxonalarga jamoat ishlari tashkil etish afzalliklari to‘g‘risida tushuntirish xatlari chikarildi va tumandagi xar bir mahalla fuqarolar yig‘inlaridan ishsiz fuqarolarni ro‘yxati

shakllantirildi va joriy yilning yanvar-iyun oylarida jami 403 nafar fuqarolarni vaqtinchalik haq to'lanadigan jamoat ishlariga yuborildi.

Tumanda ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish bo'yicha 2022 yilda dastur bo'yicha 459 nafar ishsiz fuqarolarni kasb xunarga o'qitish markazlariga o'qitish rejalashtirilgan. Yanvar-iyun oylarida 405 nafar 6 oylik rejaga nisbatan 147 % fuqarolar turli xil yo'nalishdagi kasb xunar o'qitish markazlariga malaka oshirish uchun o'qishga jalb qilindi.

Tumandagi ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash maqsadida 2022 yilning yanvar-iyun oylarida jami 7 marotaba bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkalari o'tkazildi. Ushbu o'tkazilgan bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasida 141 nafar ishsiz fuqarolar iqtisodiyotning turli soxalarida ishga joylashtirildi. Bu esa mehnat yarmarkasiga qatnashgan fuqarolar soniga nisbatan 19 % ni tashkil etadi.

Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kam ta'minlangan "Temir daftar", "Yoshlar", va "Ayollar daftari"ga kiritilgan ishsiz fuqarolarning 100 nafariga urug'lik kartoshka, 7 nafariga yengil konstruksiyali issiqxonalar subsidiya asosida yetkazib berildi.

6 oylik yakuni bilan ishsizlik darajasi 9,2 % ni, tumanda meynat bozoriga 2022 yil maktab bitiruvchilari kirib kelganligi va uzoq muddatga xorijga ketganlarning ko'plab qaytganligi bilan 9,6 %ni tashkil etdi, viloyatda 16 ta shahar tumanlar ichida 7 o'rinni tashkil etmoqda, bu ko'rsatkich 2021 yilda 11,2 %, ya'ni Toyloq tumani viloyatdagi oxirgi 3 ta tumanning birida edi.

Toyloq tuman ABKM direktori

O'. Xalilov/